



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA LOYIHA ISHLARINI BAJARISH UCHUN KO'RSATMALAR

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna

Qo'qon davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari

Nabiyeva Mohinur Alisher qizi,

Azizjonova Husnidaxon Azizjon qizi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinif matematika darslarida o'quvchilarga loyiha ishini bajartirish uchun kerakli bo'lgan ko'rsatmalar va ularni tashkil qilish bosqichlari haqida so'z borgan. Shu nuqtai nazardan, loyiha asosida o'qitish (projektlı o'qitish) texnologiyasi boshlang'ich sinif matematika darslarida o'quvchilarning ijodkorligi, mantiqiy tafakkuri va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi samarali metod hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, kreativlik, muammo, ijodiy fikr, tarkibiy asoslar, ijodiy qobiliyat, hissiy-baholash, ijodkorlik

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, izlanish olib borishi va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, loyiha asosida o'qitish (projektlı o'qitish) texnologiyasi boshlang'ich sinif matematika darslarida o'quvchilarning ijodkorligi, mantiqiy tafakkuri va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi samarali metod hisoblanadi.

Boshlang'ich sinif matematika darslarida loyiha ishlarini bajarishdan asosiy maqsad — o'quvchilarni o'z bilimlarini mustaqil tarzda chuqurlashtirish, turli manbalardan foydalanish, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatishdir. Shuningdek, loyiha ishlari o'quvchilarni jamoada ishlashga, o'z fikrini asoslab himoya qilishga ham yo'naltiradi.

Loyiha ishlarini tashkil etish bosqichlari

1. Tayyorlov bosqichi

- Loyiha mavzusini tanlash (o'qituvchi rahbarligida yoki o'quvchilarning qiziqishlariga qarab);

- Maqsad va vazifalarni aniqlash;

- Ishni bajarish rejasini tuzish;

- Kerakli materiallar va manbalarni yig'ish.

Masalan: "O'nlik tizimda sonlar" yoki "O'lchov birliklari hayotimizda" mavzusida loyiha tanlash mumkin.

2. Asosiy (amaliy) bosqich

- O'quvchilar topshiriqlarni guruhlarda yoki yakka tartibda bajaradilar;

- Matematik masalalar, o'lchov ishlari, hisoblash, tahlil va taqqoslash jarayonlari amalga oshiriladi;

- Ma'lumotlar to'planadi va xulosalar chiqariladi.

Misol: “Oilamizdagi bir haftalik xarajatlar” mavzusi bo‘yicha o‘quvchilar xarajatlarni hisoblab, diagramma yoki jadval shaklida ifodalaydilar.

3. Yakuniy bosqich

- O‘quvchilar o‘z loyiha natijalarini taqdim etadilar (plakat, taqdimot, stend yoki maket shaklida);

- Guruhlar o‘z ishlari haqida hisobot beradilar;

- O‘qituvchi baholash mezonlariga ko‘ra ishlarni tahlil qiladi.

Ushbu loyiha yordamida o‘quvchilar matematik bilimlarini amaliyotda qo‘llab, maktab hovlisidagi daraxtlarning balandligini aniqlashni o‘rganadilar.

Maqsad:

Matematik o‘lchov birliklarini amaliyotda qo‘llash va taxminiy o‘lchash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Vazifalar:

- Daraxtlarni tanlash va ularning soyasini o‘lchash;
- O‘quvchi bo‘yini va soyasini o‘lchab, nisbat asosida daraxt balandligini aniqlash;

- Natijalarni taqqoslash va xulosa chiqarish.

Jarayon:

O‘quvchi va guruhi quyidagi ma’lumotlarni yig‘ishdi:

Daraxt nomi	Daraxt soyasi (m)	O‘quvchi soyasi (m)	O‘quvchi bo‘yi (m)	Daraxt balandligi (m)
-------------	-------------------	---------------------	--------------------	-----------------------

O‘qituvchi loyiha jarayonida yo‘l-yo‘riq beruvchi, maslahatchi va nazoratchi rolini bajaradi. U o‘quvchilarga mavzu tanlashda, manbalarni topishda, natijalarni tahlil qilishda yordam beradi, lekin barcha ishni ularning o‘rniga bajarmaydi.

Loyiha asosida o‘qitish boshlang‘ich sinf matematika darslarini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. U o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Loyiha ishlari yordamida bolalar matematikaning hayotdagi ahamiyatini his etadilar va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

1. Jumaev M.E., Tadjieva Z.G`. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai”, 2005y

2. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. “JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 1, ISSUE 6, 119.

3. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1354-1365.

4. Roxataliyevna, A. N. (2025). MAKTAB O‘QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISHDA MANTIQUIY SAVOLLARNI AHAMIYATI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(5), 649-653.